

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12. San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

RUSTAMALIYEVA SHAHNOZA RUSTAMALI QIZI

**O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR MADANIYATI RIVOJIGA TA’SIR
KO‘RSATAYOTGAN ICHKI VA TASHQI OMILLAR**

17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Rustamaliyeva Shahnoza Rustamali qizi

О‘zbekistonda xotin-qizlar madaniyati rivojiga ta’sir ko‘rsatayotgan
ichki va tashqi omillar 3

Рустамалиева Шахноза Рустамали кизи

Внутренние и внешние факторы, влияющие на развитие женской
культуры в Узбекистане 21

Rustamaliyeva Shahnoza Rustamali kizi

Internal and external factors affecting the development of women's
culture in Uzbekistan..... 41

E’lon qilingan nashrlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12. San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

RUSTAMALIYEVA SHAHNOZA RUSTAMALI QIZI

**O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR MADANIYATI RIVOJIGA TA’SIR
KO‘RSATAYOTGAN ICHKI VA TASHQI OMILLAR**

17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/San248 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.dsmi.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nishonboyeva Qunduz Vahobovna
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sultonova E'tibor Siddiqovna
siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Xayitboy Dadaxonovich
san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 14-may soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).


Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (42-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).


Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 16-aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil 16-apreldagi 9-raqamli reyestr bayonnomasi).




M.T. Tulyaxodjayeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor


J.A. Mamatqosimov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor


A.A. Umarov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy globallashuv jarayonlarida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rnini ortib borish bilan birga ayollarga nisbatan tahdidlar va ularning oldini olishga bo'lgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlarning mavqeini yuksaltirish, ularning jamiyatdagi faolligini ta'minlash, ta'limiga katta e'tibor qaratish mas'uliyati ortib bormoqda. Ayollarning ijtimoiy faolligi jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning ishonchli ko'rsatkichi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining imkoniyatlarini belgilab berish va demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda ularning ishtirokini faollashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon madaniyatshunosligida insonparvarlik, qadriyat, erkinlik va tolerantlik haqidagi g'oya va qarashlar bir-biri bilan uyg'unlikda o'rganilayotgani xotin-qizlar madaniyati rivojiga ta'sir ko'rsatayotgan ichki va tashqi omillar, ular duch kelayotgan tahdid va tazyiqlar yaxlit tarzda tadqiq etilmoqda. Madaniyatshunos, san'atshunos, tarixshunos va faylasuflar tomonidan xotin-qizlar ijtimoiy tarixini o'rganish, jinslarning ijtimoiy munosabatlarini tarixiy fikrning fundamental kategoriyasi sifatida ko'rib chiqish, jinslararo munosabatlar nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy munosabatlar ekanligi ta'kidlanmoqda. Xotin-qizlar va tarix masalasi tarixshunoslik ilmida ham yangicha qarashlar shakllantirib, xotin-qizlar madaniy rivojlanishi, ularning ijtimoiy hayotda duch kelayotgan muammolarini o'rganish zarurati dolzarb hisoblanmoqda.

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi, ishlab chiqarish va turmush tarzi bilan bog'liq turli ijtimoiy qatlamlar vakillari bo'lgan xotin-qizlarning madaniy saviyasini oshirish barqarorlashmoqda. "Agar biz farzandlarimizni sog'lom va barkamol, vatanga sodiq insonlar etib voyaga yetkazish niyatida ekanmiz, avvalo xotin-qizlar uchun ilm-fan va kasb-hunar yo'llarini keng ochib berishimiz kerak"¹ ekanligi asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Bugungi tezkor jarayonda O'zbekiston taraqqiyotining Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda xotin-qizlarning roli katta ekanligi hamda ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlar ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O'RQ-561-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida", 2019-yil 2-sentabrdagi O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 7-martdagi PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan marosimdagi nutqidan / Xalq so'zi. – Toshkent, 2022-yil 6-mart. 47-son. (7827). – B. 1.

to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni, ilmiy, ijodiy, amaliy faoliyatini o'rganish borasida xorijiy tajribalar mavjud. Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni, ilmiy, ijodiy va amaliy faoliyatini o'rganish borasida jahon miqyosida tadqiqotchilar tomonidan turli yo'nalishlarda izlanishlar olib borilgan. Jumladan, ingliz olimlari B.Fridan tadqiqotlarida ayollarning shaxsiy erkinligi va mehnat faoliyatidagi o'rni ochib berilgan. M.Ferri esa gender siyosati va ayollarning ijtimoiy institutlardagi ishtirokiga e'tibor qaratgan².

MDH olimlaridan Ye.Zdravomislova tadqiqotida gender tenglik, ayollarning mehnat bozoridagi o'rni va jamiyatdagi ijtimoiy rollari masalalari tadqiq qilinadi. S.Golod oiladagi gender rollari va ayollarning ijtimoiylashuvi muammolarini o'rgangan. O.Voronina ayollarning mehnat va siyosiy hayotdagi faolligi, gender stereotiplari masalalarini tadqiq qilgan. V.Xvostov ijtimoiy tizimlarda gender rollari va jamiyatda ayollarning tutgan o'rnini sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilgan. S.Polenina tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xotin-qizlarning gender tengligi, huquq va erkinliklarini ta'minlash masalalari huquqiy-normativ asosda tahlil qilingan. N.Andreyevaning ilmiy izlanishlarida ayolning jamiyat va oiladagi o'rni tarixiy, sotsiologik va psixologik jihatdan tadqiq qilingan³.

O'zbekistondagi ayollar muammosi tadqiqotchilarning keng doirasini hamma vaqt qiziqtirib kelgan. Xususan, Q.Nishonboyeva xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faolligi, ularning jamiyatdagi o'rni, ta'lim va kasb-hunar sohasidagi ishtirokini, D.Rajabova xotin-qizlarning huquqiy ongini oshirish, jamiyatdagi gender tengligi muammolarini va ayollarning huquqlarini himoya qilish, G.G'aniyeva ayollarning mehnat bozori va ish joylaridagi o'rni, ijtimoiy himoya tizimlari va gender tengligi masalalarini, T.Norboyeva xotin-qizlarning madaniy faoliyati, jamiyatdagi ijtimoiy integratsiyasi va ularning ijtimoiy hayotdagi roli, M.Jumaniyozova ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki, iqtisodiy mustaqillik va gender tengligi masalalarini, X.Nasrullayeva xotin-qizlarning psixologik jihatlari, ijtimoiy integratsiyasi va gender

² Фридан Б. Загадка женственности. – Москва: Издательство Прогресс, 1994. – 496 с.; Ферри М. Феминизм и семейные исследования. – Красноярск, 2004. – 36 с.

³ Здравомыслова А. Исследования женщин и гендерных исследования на западе и в России. Монография. – Москва: Издательство Прогресс, 1999. – 237 с.; Голод С. Семья и брак: история и социологический анализ. – Москва: Издательство Петрополис, 1998. – 159 с.; Хвостов В. Психология женщин, Равноправие женщин. – Москва: Издательство Прогресс, 1994, – 168 с.; Воронина О.Феминизм и гендерное равенство. – Москва: Издательство Эдиториал, 2003. – 320 с.; Поленина С. Права женщин в системе прав человека: международный и национальный аспект. – Москва: Издательство Эслан, 2000. – 223 с.; Андреева Н. Женщины и общество: Дис.Соц.-филос. аспект: Дис. ... канд. фил. наук. – Ставрополь, 1995. – 150 с.

tengligi masalalarini, G.Boyqo‘ziyeva esa ayollarning oiladagi roli, mehnat va iqtisodiy faoliyatdagi o‘rni hamda jamiyatdagi holatini tadqiq qilgan⁴.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Yangi O‘zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi: an‘anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg‘unligida madaniyat va san‘at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda xotin-qizlar madaniyatining rivojlanish jarayoniga ta‘sir ko‘rsatayotgan ichki va tashqi omillarni aniqlash, ularning ayollarning ijtimoiy faolligi, huquqiy ongi va madaniy dunyoqarashini rivojlantirishga ta‘sirini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xotin-qizlarning madaniy o‘shish darajasiga va jamiyatdagi ijtimoiy faolligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi, ijtimoiy-psixologik, madaniy-ma‘naviy, iqtisodiy va institutsional cheklovchi omillarni tizimli ravishda tadqiq qilish;

ayollar huquqiy madaniyatining shakllanishi, shaxsiy erkinlik tushunchasining mustahkamlanishi hamda ijtimoiy ong va fuqarolik pozitsiyasining rivojlanishida ta‘lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va ta‘sirini asoslash;

xotin-qizlarning ma‘naviy madaniyati rivojiga ma‘naviy tahdidlar, oilalarda uchrayotgan tazyiq hamda zo‘ravonliklar, oila va jamiyatda ular duch kelayotgan diskriminatsiyalar ta‘sir ko‘rsatayotganligini aniqlash;

jamiyatda xotin-qizlarning o‘z huquqlarini bilgan, ijtimoiy mas‘uliyatli va o‘ziga ishongan shaxs sifatida shakllanishini rag‘batlantirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy yondashuv va metodologiyalar hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston xotin-qizlarining madaniyati rivojlanishining ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy aspektlari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini xotin-qizlar madaniyati rivojiga ta‘sir ko‘rsatayotgan ichki va tashqi omillar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy taqqoslash, kuzatish, tizimlilik, so‘rovnoma, umumlashtirish, muvofiqlashtirish, nazariy mushohada, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

⁴ Nishonboyeva Q. O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari (20–30-yillar. Tajriba va oqibatlar): Tar. fan. nom. dis. – Toshkent, 1998. – 162 b; Rajabova D. Turkiston jadidlarining qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalalari: Tar. fan. nom. dis. – Toshkent, 2003. – 155 b.; G‘aniyeva G. O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasi: yangicha yondashuv, muammo va yechimlar (mustaqillik davri 1991–2005): Tar. fan. nom. dis. – Toshkent, 2006. – 161 b.; Norboyeva T. O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli: Sot. fan. dok. dis. – Toshkent, 2020. – 189 b.; Jumaniyozova M. Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar salomatligini mustahkamlashga, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlarning insonparvar xarakteri: Ped. fan. dok. dis. avtoref. – Samarqand, 2022. – 45 b.; Nasrullayeva X. O‘zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiylashuvi jarayonining falsafiy tahlili: Fal. fan. nom. dis. – Toshkent, 2000. – 170 b.; Boyqo‘ziyeva G. O‘zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mexanizmlari: Fal. fan. nom. dis. – Qo‘qon, 2021. – 150 b.; Asqarova Z. Ayollar obrazining tasviriy san‘atdagi badiiy ifodasi (O‘zbekiston misolida): Fal. fan. nom. dis. – Toshkent, 2021. – 145 b.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oilaviy muhit, gender munosabatlaridagi tengsizlik, patriarxal qarashlar, an'anaviy stereotiplar va ta'lim imkoniyatlari bilan bog'liq cheklovlar kabi ichki omillar hamda mehnat bozoridagi tengsizlik va ijtimoiy makonda uchraydigan diskriminatsiya kabi tashqi omillarning xotin-qizlar ijtimoiy-madaniy faolligiga kompleks ta'siri asoslangan;

ta'lim darajasi, san'atning ta'sir xususiyatlari, kasbiy malaka, huquqiy madaniyat va siyosiy faollik kabi individual resurslar bilan davlat va jamoat institutlarining qo'llab-quvvatlovi o'rtasidagi integratsiya xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarining kengayishiga ko'ra ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishning muhim sharti ekanligi dalillangan;

xotin-qizlar madaniy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi oilaviy muhit, tazyiq, zo'ravonlik holatlari va ijtimoiy diskriminatsiya, ayollarning madaniy va ma'naviy salohiyatini namoyon etish imkoniyatlarini cheklash kabi omillar ijtimoiy-madaniy stereotiplar, iqtisodiy qaramlik, oilaviy va maishiy yuklamalar, zo'ravonlik va xavfsizlik masalalariga ko'ra gender munosabatlar tizimi bilan uzviy bog'liqligi isbotlangan;

xotin-qizlarning jamiyat madaniy taraqqiyotidagi rolini oshirishda ularning san'at, madaniyat va jamoat ishlaridagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash ustuvor ahamiyatga ega ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy hayotda xotin-qizlar duch kelayotgan muammolar tarixiy-metodologik manbalar va kontseptual-nazariy asosda tahlil qilinib, ular asosida zamonaviy jarayondagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

dissertatsiya materiallari xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish, ular duch kelayotgan tahdid, tazyiq va diskriminatsiya muammolarini barfataraf etishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarni amalga oshirish, monografiya va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda tayanch manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi respublika va xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar, ma'ruzalar chop etilganligi, tadqiqot asosida olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning madaniy rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini izlab topishda ilmiy-nazariy asos yaratadi. Shu bilan birga, ayollarga nisbatan gender tengsizlik, ma'naviy tahdidlar, tazyiq va zo'ravonlik holatlarining ijtimoiy va madaniy ildizlarini o'rganish orqali jamiyatda insonparvarlik, adolat va madaniy barqarorlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati madaniyatshunoslik va madaniyat nazariyasiga doir yangi o'quv qo'llanma va darsliklar yaratish, oliy ta'lim muassasalarida yangi madaniyatshunos va san'atshunos kadrlarni tayyorlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda xotin-qizlar madaniyati rivojiga ta’sir ko‘rsatayotgan ichki va tashqi omillar masalasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

oilaviy muhit, gender munosabatlaridagi tengsizlik, patriarxal qarashlar, an’anaviy stereotiplar va ta’lim imkoniyatlari bilan bog‘liq cheklovlar kabi ichki omillar hamda mehnat bozoridagi tengsizlik va ijtimoiy makonda uchraydigan diskriminatsiya kabi tashqi omillarning xotin-qizlar ijtimoiy-madaniy faolligiga kompleks ta’siri asoslangan xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022–2024-yillardagi madaniy-ma’rifiy ishlar samaradorligini ta’minlashga qaratilgan faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 6-maydagi 02-12-18-2628-son ma’lumotnomasi). Natijada, xotin-qizlarning madaniy-ma’rifiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular Madaniyat vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan madaniy-ma’naviy loyihalar doirasida qo‘llanilgan;

ta’lim darajasi, san’atning ta’sir xususiyatlari, kasbiy malaka, huquqiy madaniyat va siyosiy faollik kabi individual resurslar bilan davlat va jamoat institutlarining qo‘llab-quvvatlovi o‘rtasidagi integratsiya xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarining kengayishiga ko‘ra ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishning muhim sharti ekanligi dalillangan xulosa va takliflardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Kinoteatr” telekanalida efirga uzatilgan “O‘zimizning kino” ko‘rsatuvida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 16-apreldagi 03-14-85-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuv sonlarida tadqiqot mavzusiga doir masalalar, xususan, filmlarda oila va ijtimoiy hayotda xotin-qizlar duch kelayotgan muammolar va ularning yechimini keng yoritish targ‘ib etilgan;

xotin-qizlar madaniy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi oilaviy muhit, tazyiq, zo‘ravonlik holatlari va ijtimoiy diskriminatsiya, ayollarning madaniy va ma’naviy salohiyatini namoyon etish imkoniyatlarini cheklash kabi omillar ijtimoiy-madaniy stereotiplar, iqtisodiy qaramlik, oilaviy va maishiy yuklamalar, zo‘ravonlik va xavfsizlik masalalari kabi omillar sababli gender munosabatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqligi isbotlangan xulosa va takliflardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2024-yildagi ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2025-yil 21-noyabrdagi 10/776-son dalolatnomasi). Natijada, markaz tomonidan amalga oshirilgan “Sharq ayoli ma’rifati” loyihasi, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar, targ‘ibot-tashviqot ishlari va ijtimoiy loyihalarda tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy xulosalar, gender tenglikni mustahkamlash va ayollarning jamiyatdagi o‘rnini oshirishga xizmat qilgan;

xotin-qizlarning jamiyat madaniy taraqqiyotidagi rolini oshirishda ularning san’at, madaniyat va jamoat ishlaridagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash ustuvor ahamiyatga ega ekanligi dalillanganligiga oid xulosa va takliflardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2024-yildagi ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2025-yil 21-noyabrdagi 10/776-son dalolatnomasi). Natijada, markaz tomonidan amalga oshirilgan ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar, targ‘ibot-tashviqot

ishlarida gender tenglikni mustahkamlash yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro, 2 ta respublika konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilingani. Dissertatsiya bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, shundan xorijiy jurnallarda 3 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi ko'rib chiqilgan, tadqiqot obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari ko'rsatib o'tilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishariga bog'liqligi ochib berilgan, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi bayon etilgan, dissertatsiya natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilingani hamda tadqiqot ishining tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Xotin-qizlar madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**" nomli birinchi bobi ikkita bo'limdan iborat bo'lib, "**Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda xotin-qizlarning o'rni**" deb nomlangan birinchi bo'limida xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlar madaniyati rivojiga ta'sir ko'rsatayotgan ichki va tashqi omillardan himoya qilish masalalari muhokama qilinadi. Tadqiqot ishida xotin-qizlarning o'z tarixi bor ekani va u erkaklarnikidan farq qilishi bilan bir qatorda, xotin-qizlar tarixining o'ziga xosligi, farqlari va turlichaligi bilan ajralib turishi masalalariga to'xtab o'tiladi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda "ayollar madaniyati" tushunchasi gender nazariyasi va madaniyatshunoslik doirasida shakllangan konseptual kategoriya sifatida talqin qilinib, u jinsiy identifikatsiya, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy tajriba va madaniy amaliyotlar majmuini ifodalaydi, shuning uchun ham xotin-qizlar tarixini faqat bittagina yondashuv vositasida emas, ko'p o'lchovli yondashuv yordamidagina tadqiq qilish mumkinligi tadqiq etiladi.

Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida ayol oilaning muqaddas poydevori sifatida ta'riflanadi. Unda "Ayolning obro'si – el obro'si" degan g'oya ilgari surilib, onalar, opa-singillar, xotin-qizlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlanadi.⁵ Amir Temur jamiyat barqarorligini ta'minlashda ayollarning o'rni va ta'sirini alohida e'tirof etadi. Xotin-qizlar muammolarini tizimli tadqiq etish maqsadida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalarda, ayollarning aksariyat qismi (36,60%) bandlik muammosi, moliyaviy (16,6%) muammolarni keltiradi. Bugungi kunda ayollarning katta qismi ishsizlikdan va uning natijasida moliyaviy mustaqilligi yo'qligidan qiynalmoqda. Aksariyat ayollar bu savolga javob berishni ham xohlashmagan. Bu esa

⁵ Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Ijod Press, 1996. – 160 b.

ularning bugungi ijtimoiy hayotdagi ishtiroki u qadar faol emasligini, jarayonlarga befarqligi ortib borayotgani va o'z hayotiga nisbatan ham beparvolik bilan yondashayotganini anglatadi.

Maktabni tamomlash arafasida turgan 15–20 yoshli qizlar “Sizning yoshingizdagi qizlar o'rtasida asosan qanday muammo keng tarqalgan deb o'ylaysiz?” deb berilgan savolga turlicha javob berishadi. Qizlar o'zlarining bu yoshlarida asosan psixologik muammolarga duch kelishmoqda. Resrondentlarning 23,3% aynan shuni ta'kidlagan. Xuddi shuncha foiz qizlar savolga javob berishga qiynalgan. Demak ularning psixologik suhbatlarga ehtiyoji katta. 20% ishtirokchi asosan odob-axloq normalari bilan bog'liq muammolar ular orasida keng tarqalayotganini ta'kidlashgan. Shuningdek, 16,6% qatnashchi erta turmush qurish bugungi kunda ular oldidagi katta muammo ekanligini belgilashgan. So'rovnomada natijalari shuni ko'rsatdiki, 15–20 yoshli qizlar orasida eng ko'p tarqalgan muammolar psixologik holat, odob-axloq me'yorlari bilan bog'liq qiyinchiliklar va erta turmush masalasi hisoblanadi. Ayniqsa, psixologik muammolar va savolga javob berishda qiynalganlar sonining bir xil – 23,3% bo'lishi, ularning ichki holati va ruhiy yordamga ehtiyoji yuqoriligini ko'rsatadi. 20% ishtirokchi odob-axloq bilan bog'liq muammolarni qayd etgan bo'lsa, 16,6% qizlar erta turmush qurishni dolzarb muammo sifatida belgilagan. Ushbu raqamlar ota-onalar va jamiyat tomonidan o'smir qizlarning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy muammolariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayotganini anglatadi. Shunday ekan, qizlar bilan ochiq suhbatlar, psixologik yordam va ijtimoiy ongni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish muhim.

Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk” asarida ayol turk jamiyatida qadrlangan, iffatli va ota-onaning izzatini saqlovchi shaxs sifatida tasvirlangan. “Qiz bola tarbiyasi avvalo oila sha'nidir”⁶ deya ta'kidlanadi. Gender siyosatini amalga oshirishdagi asosiy muammolardan yana biri bu gender siyosatining huquqiy asoslarini yaratishdir. Davlat tomonidan ayollar, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, mahalliy darajada manzilli yordam ko'rsatish muhim masalalardan biridir. Kundalik hayotda xotin-qizlar ko'pincha ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lib, ular uydagi zo'ravonlik, kamsitish kabi holatlarga duchor bo'ladi. U zaif jins vakili bo'lgani uchun ham ko'p hollarda huquqlari qo'pol tarzda buziladi. Jinsiy zo'ravonlikning sabablari axloqiy saviya, jamiyatda xotin-qizlarga bo'lgan muomala madaniyatining pastligi va ularga nisbatan tajovuzning jazosizlik darajasi yuqoriligi ekanligi tadqiq etilgan.

Ushbu bobning **“Xotin-qizlar oldida turgan ijtimoiy muammolarni hal etish usullari va mexanizmlari”** deb nomlangan ikkinchi bo'limida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy huquqlari, qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ta'lim olishining ahamiyati, ular duch keladigan tahdid va tazyiqlarning oldini olish, ijtimoiy ishlab chiqarish va boshqaruv tizimida ishtiroki uchun qulay sharoitlar yaratish, onalar va bolalar sog'lig'i darajasini yuksaltirish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan har tomonlama ta'minlash masalalarining dolzarb jihatlari tadqiq etilgan.

Tarixiy manbalarga e'tibor qaratisa, yetakchi ma'rifatarvarlar Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniylar ham xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni ularning ilmlilik darajasi bilan bog'liqligi xususida to'xtalib o'tishgan. Fitrat “Oila”

⁶ Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. – Toshkent: Fan, 1960. 1-jild. – B. 67.

asarida shunday yozadi: “ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi milliy ozodlik, erk uchun zarur. Ayollar faqat uy-ro‘zg‘or, bola tarbiyasi bilan band bo‘lib qolmasligi kerak”. Bundan ko‘rinadiki, ayollar huquqi va ilm olishlari uchun munosib imkoniyatlar yaratish har bir davr uchun muhim hisoblab kelingan.

Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asarida “ayol sabr, iffat va ma’naviy poklikka undovchi timsol”⁷ sifatida talqin etiladi. Uning hikmatlarida ayollarga mehr bilan, lekin jiddiy mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish kerakligi uqtiriladi. Bu fikrlar orqali Yassaviy ayol tarbiyasining ijtimoiy va ma’naviy muvozanatdagi o‘rnini asoslaydi.

Ayollar o‘rtasida kasbiy malakaning yetishmasligi, ularning ko‘proq uy-ro‘zg‘or ishlari bilan band bo‘lib qolishi fan va texnika yangiliklaridan to‘liq boxabar bo‘lishiga imkon berilmaganligi bois davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga jiddiy to‘siq bo‘ladi. Jahon miqyosida olganda, ayollarning davlat boshqaruvida ishtirok etishiga ta’sir etuvchi omillar ikki guruhga ajratiladi:

Birinchisi – institutsional omillar. Bunda xotin-qizlarning siyosatga integratsiyalashuvi, siyosiy partiyalarning xotin-qizlar hayotiga keng kirib borish imkoniyati kabi masalalar.

Ikkinchisi – individual omillar bo‘lib, xotin-qizlarning ma’lumotlilik darajasi, kasbiy malakasi, huquqiy savodxonligi, siyosiy faolligi kabilarni o‘z ichiga oladi.⁸ Bu omillar respublika xotin-qizlarining hayotida ham mavjud.

O‘zbek xotin-qizlarining ijtimoiy-madaniy qiyofasini jamiyatda ularning ijtimoiy mavqei, huquqiy bilimlari, ma’naviy qiyofasi, ta’lim darajasi, madaniy faolligi va jamiyat hayotidagi ishtiroki aks ettiradi. Buni quyidagi asosiy komponentlar tashkil etadi: ijtimoiy komponent – ayollarning oila, mehnat bozori, siyosiy va jamoatchilik faoliyatidagi ishtiroki; huquqiy komponent – qonun oldida tenglik, gender tengligi kafolatlari; madaniy komponent – milliy qadriyatlar, an’analar va zamonaviy madaniyatdagi ishtiroki; ma’naviy-axloqiy komponent – dunyoqarash, tarbiya va axloqiy qadriyatlar tizimi; iqtisodiy mustaqillik komponenti – mustaqil mehnat faolligi, tadbirkorlik va boshqalar.

Bugungi kunda davlat tomonidan xotin-qizlarning bandligi darajasini ortirish, ularning kasb egasi bo‘lishlari hamda jamiyat va davlat taraqqiyotiga hissa qo‘shishlari uchun ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda. Xotin-qizlarning siyosiy ishtirokini oshirish maqsadida davlat tomonidan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida yashovchi ayollarga ta’lim olish va kasbiy tayyorgarlikni kengaytirish, ularning huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirish, siyosiy va ijtimoiy hayotga faol jalb etish uchun zaruriy sharoitlar yaratish maqsad qilinmoqda. Bu jarayonlar xotin-qizlarning jamoat hayotidagi o‘rni va ta’sirini, ijtimoiy faolligini va davlat boshqaruvidagi rolini kuchaytiradi. Shunga qaramasdan, kuzatuvlar ijro etuvchi mutaxassislar tomonidan bu borada ayollarning yukini yengillashtirish uchun samarali takliflar yetarlicha berilmayotganini ko‘rsatmoqda. Bu ish to‘g‘ri tashkil etilganida oilada bo‘ladigan kundalik mojarolarning kamayishiga erishilgan bo‘lardi.

⁷ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001. – B. 45.

⁸ Константинова В. Власть и женщина. Права женщин в России: исследование реальной практики их соблюдения и массового создания. – Москва: Издательство Аспект Пресс, 1998. – 280 с.

Dunyo miqyosida xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi faolligini ta'minlash masalasi global kun tartibidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro miqyosdagi turli siyosiy va huquqiy platformalarda bu masala nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki barqaror rivojlanish jarayonlarida ayollarning rolini kuchaytirish omili sifatida talqin qilinmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNESKO, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tuzilmalar tomonidan xotin-qizlarning qaror qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish, ularning yetakchilik salohiyatini rivojlantirish hamda siyosiy institutlarda gender muvozanatini ta'minlashga qaratilgan kompleks strategiyalar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur tashabbuslar, o'z navbatida, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi holatini yaxshilash, ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

XXI asrda Yevropa matbuotida demografik inqiroz haqida juda ko'p gapirilmoqda. Butun boshli millatlar yo'q bo'lib ketmoqda. Bunga asosiy sabab demografik vaziyat, ya'ni oilalarning farzandni dunyoga keltirishni istamayotganidir. O'zbekistonda demografik inqiroz holati kuzatilmayotgani ijobiy holat sifatida qayd etilgan bo'lsa-da, bu barqarorlikni saqlab qolish bilan birga, ayollarning mehnatga erkin jalb etilishi, ularning bandlik darajasini oshirish va oilaviy hamda kasbiy majburiyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarurati dolzarb bo'lib bormoqda. Shu munosabat bilan, demografik vaziyatning ijobiy saqlanishiga qaysi ijtimoiy toifadagi ayollar ko'proq hissa qo'shayotgani masalasi tadqiq etilgan.

Dissertatsiyaning **“Xotin-qizlar ijtimoiy-madaniy faolligini oshirishning asosiy omillari”** deb nomlangan ikkinchi bobi ikkita bo'limdan iborat bo'lib, **“Xotin-qizlar ijtimoiy-madaniy faolligini rivojlantirish masalalari”** deb nomlangan birinchi bo'limida xotin-qizlar madaniyati rivojiga ta'sir ko'rsatayotgan omillar, xususan, tahdid, zo'rvonlik, diskriminatsiya, migratsiyaning “feminizmlashuvi” kabi muammo va masalalarni insonning ma'naviy va ruhiy salomatligi, hayoti, faoliyatiga qanchalik salbiy ta'sir qilishini tushungan holda ularni oldini olish bugunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotgani tadqiq etilgan.

Globalashuv davrida dunyoda tinchlikni saqlash tobora murakkablashib bormoqda. Tahlikali vaziyatlar turlicha ko'rinishda avj olaypti. Turli vaziyatlar orasida butun dunyoda, shu o'rinda, O'zbekistonda ham xotin-qizlarga nisbatan tahdidlar soni ortib boryapti. Butun jahon miqyosida xotin-qizlarga tazyiq o'tkazish va uning inson salomatligiga ta'siri tadqiq etilishi muhim bo'lgan asosiy muammolardan biriga aylanib ulgurgan.

Tahdid ijtimoiy-siyosiy vaziyat bo'lib, u muayyan tarixiy davrda aniq bir maqsadga, ya'ni ijtimoiy tizim sifatida davlatning siyosiy asoslarini zaiflashtirishga, yemirishga, shuningdek, inson hayotiy faoliyatini izdan chiqarishga, umuman yashashni chigallashtirishga qaratilgan hududiy, mintaqaviy, umumsayyoraviy omillarning kirib kelishi tufayli sodir bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, zaruriy chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadiki, uning amalga oshirilishi natijasida mamlakatda sezilarli ijobiy siljish ro'y beradi.

Tahdidlardan eng xavfli bu ma'naviy tahdiddir. Shavkat To'rayevning “Ma'naviy tahdid: falsafiy talqin” kitobida aytilganidek, ma'naviy tahdidlar faqat inson tomonidan yaratiladi va faqat inson insonga tajovuz qilishi bilan zararlidir. Ma'naviy

tahdid insoniyatni o'z domiga tortib, uni muammolar girdobiga tashlaydi. Shu bois ham bugungi kunda mafkuraviy, ma'naviy tahdidlarning mazmun-mohiyati, ko'rinishi, xususiyatlarini yetarlicha anglangandagina jamiyat ularga qarshi kurasha oladi.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari hali ham hal etilmagan dolzarb muammo sifatida qolmoqda. Zo'ravonliklarning turlari:

huquqiy zo'ravonlik;

oilaviy-maishiy zo'ravonlik (turlari: jismoniy, jinsiy, iqtisodiy va ma'naviy);

psixologik zo'ravonlik;

ma'naviy zo'ravonlik;

tibbiy zo'ravonlik;

ijtimoiy zo'ravonlik.

Ushbu dolzarb muammoni tahqirlash holatlari yuzasidan ilmiy ishlar juda ham kam olib borilishi natijasida bu masala hali ham o'z yechimini topmagan global muammolardan biri deyish mumkin. Bu masala jamiyat rivoji uchun ham salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Buning quyidagi sabablarini ko'rsatish mumkin:

1) jamiyatda oilaviy muammolar ko'pincha yashirin saqlanadi, ularni jamoatchilik tomonidan hal etishga urinish esa shaxsiy hayotga aralashuv sifatida baholanadi. Natijada, oilalarda ayollar va bolalarga nisbatan sodir etilayotgan zo'ravonlik holatlari "oilaviy masala" sifatida ichki muhitda qolib ketadi, jabrlanuvchilar esa erlari yoki boshqa oila a'zolari tomonidan ko'rsatilayotgan tazyiqlar haqida tegishli tashkilotlarga murojaat qilmaydi hamda zarur amaliy yordamni ololmaydi;

2) oila ichida jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki boshqa shakldagi zo'ravonlikka uchragan ayollar ko'pincha jamiyatda yoki oilada obro'-e'tiboriga putur yetishidan cho'chib, boshidan kechirgan voqealarni oshkor etmaslikni afzal ko'radilar.

Ushbu bobning **"Xotin-qizlar diskriminatsiyasi (kamsitilishi) ijtimoiy muammo sifatida"** deb nomlangan ikkinchi bo'limida O'zbekistonda xotin-qizlar madaniyati rivojiga ta'sir ko'rsatayotgan ichki va tashqi omillar, xususan, tahdid va zo'ravonlik turlari, diskriminatsiya muammolarining xotin-qizlar hayotiga ta'sir-xususiyatlari tadqiq etilgan.

Ayollarga nisbatan har qanday ko'rinishdagi kamsitishni yo'qotish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti bir qator hujjatlar qabul qilgan. Shulardan eng asosiysi ayollar statusini aniqlash komissiyasi ishtirokida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1967-yil 7-noyabrda e'lon qilingan "Ayollarga nisbatan diskriminatsiyani bartaraf qilish haqida" deklaratsiya hisoblanadi. Bu faktni hozirgi kungacha saqlanib qolgan ayollarga nisbatan diskriminatsiya tasdiqlab turibdi. Ushbu deklaratsiya yuridik hujjat hisoblansada, uning mezonlari tavsiyaviy xarakterga ega, bu esa ayollarga nisbatan diskriminatsiyani bartaraf qilishda erkaklar bilan ayollarning tengligiga erishishda katta ahamiyatga ega. Ushbu konvensiyaga O'zbekiston 1995-yilda qo'shilgan.

Diskriminatsiyaga qarshi kurashning mohiyati shundan iboratki, ayollar huquqini kamsituvchi barcha qonunlar, odatlar, qoidalar, qarorlar va amaliyotlar bekor qilinishi kerak.

O'zbekistonda so'nggi paytlari "gender tengligi", "oiladagi zo'ravonlik", "himoya orderi" kabi tushunchalar tez-tez qo'llanila boshlandi. Ularning bir-biriga o'xshash jihati shundaki, mazkur tushunchalar, asosan, qiyin hayotiy vaziyatga tushgan, oilada

zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga nisbatan qo‘llanilmoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston “Gender tengsizligi indeksi reytingi”da 57-o‘rinda turibdi.

Mehnat bozorida ayrim hollarda xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlashda diskriminatsiyaga yo‘l qo‘yilayotganini ko‘rish mumkin va bu jamiyat uchun juda zararli. Umuman olganda, xotin-qizlar mehnat jarayonida har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi maqsadga muvofiq, sababi, ular ish joyida xodim bo‘lsa, uyida beka va bu katta mas‘uliyat. Ham bekalik vazifasini bajarib, ham jamiyatda faol bo‘lishga intilayotgan ayollar bu vazifalarga keragidan ortiq energiya sarflaydi. Jahon Iqtisodiy forumi hisobotiga ko‘ra, 2022-yilda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga muvofiq, xotin-qizlar erkaklarga nisbatan bir yilda 39 kun ko‘proq ishlashi aniqlangan. BMT Bolalar Jamg‘armasi (UNICEF) tadqiqotlariga qaraganda esa, qizlar biror ishni bajarishda o‘g‘il bolalarga nisbatan 40 foiz ko‘p vaqt sarflashi kuzatilgan. Ma‘lum bo‘lishicha, ayollar bir kunda erkaklarga qaraganda 50 daqiqa ko‘proq o‘z vaqtini ishxonada o‘tkazadi. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti eksrertlarining 2022-yilda o‘zbek ayollarini martabaga erishish imkoniyatlari tahlil qilingan natijalari ham shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek ayoli aslida kuniga 12 soat ishlaydi, 7-8 soat ishxonada va undan keyin o‘rtacha 4 soat uy ishlari bilan band bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda xotin-qizlar madaniyati rivojida an‘ana va yangilanishlar dinamikasi”** nomli uchinchi bobi ikkita bo‘limdan iborat bo‘lib, **“Ilm-fan va innovatsiyalar samaradorligini oshirishda xotin-qizlarning o‘rni”** deb nomlangan birinchi bo‘limida O‘zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi roli va ahamiyati masalasi tadqiq etilgan.

Xotin-qizlar ilm-fan va innovatsiyalar sohasida faol ishtirok etib, yangi g‘oyalar va texnologiyalarni yaratishda muhim hissa qo‘shmoqdalar. Ularning ishtiroki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, xotin-qizlarning ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi faoliyati ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham yordam beradi. Bunda, avvalo, xotin-qizlar ta‘limi muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi agar aholining yarmi o‘qimasa, jamiyatning rivojlanish potentsiali ikki baravarga kamayadi. Agar xotin-qizlar ta‘limiga, ularning ilm yo‘lida izlanishlariga to‘sqinlik qilinsa, davlat ham jamiyatning katta qismini tashkil qiluvchi xotin-qizlar potentsialidan yetarlicha foydalana olmagan bo‘ladi.

Jamiyatda ayollarning ma‘naviy olami naqadar keng ekanini baholab, ularning faolligini o‘lchaydigan yana bir omil – bu ularning bilimliligi. O‘qimishli ayollar ham mamlakat rivojiga hissa qo‘shadi, ham oilasida ma‘naviy muhitni yaratadi. Prezident Sh.Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, “Bitta qizni o‘qitsangiz – butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz”.⁹ Agar bir erkak ilmi bo‘lsa u o‘z kasb doirasida ilmini ulashadi, agar ayol ilmi bo‘lsa, u butun jamiyatni ziyoli qiladi. Boisi millat davomchilari bo‘lgan bolalar asosiy vaqtini onasi bilan o‘tkazadi, tarbiyaning katta qismini onadan oladi. Misol uchun, 2021-yilda maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olingan 3–6 yoshli bolalar ulushi 62 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1–6 yoshli bolalar orasida bu ko‘rsatkich 30 foizga ham yetmagan, ya‘ni, bolalarning taxminan 40–70 foizi to‘liq ravishda uyda onalari

⁹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan marosimdagi nutqidan. / Xalq so‘zi. – Toshkent, 2023-yil 7-mart. 49-son. (8672). – B. 1.

tomonidan tarbiyalanadi.¹⁰ Ilmli ona yomon xulqli inson tarbiyalamaydi, zero, oilaviy muhit, tarbiya bolaning xulqida aks etadi va butun kelajak hayotiga ta'sir qiladi. Agar ayol o'qigan bo'lsa, u o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanini yaxshi anglaydi.¹¹

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlash yo'nalishida 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur, 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi.

Professor Sh.Otajonov ta'kidlaganidek, bugun xalqaro miqyosda muhim ahamiyatga ega bo'lgan STEM va HECI global maqsadlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida ham ko'makchi sanaladi. Ta'lim tizimida “STEM” (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Mathematics – matematika) dasturini yaqin istiqbolda bosqichma-bosqich joriy etish asosida “HECI” (Humanity – insonparvarlik, Ethics – etika, Creativity – kreativlik, Imagination – tasavvur) global maqsadi (chaqirig'i) kabi kelgusi o'n yillik uchun yangi davlat talablari va ta'lim standartlarining namunaviy modellarini ishlab chiqish bugun barcha sohalar oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Boisi insonparvarlik, etika, kreativlik va tasavvurga asoslangan yondashuvlar har qaysi soha va tizimda salmoqli o'zgarishlarga olib keladi. Xususan, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda xotin-qizlar o'rtasida “sifatli ta'lim”, “gender tenglik”, “yangi innovatsiyalar” va “tengsizlikni kamaytirish” kabi maqsadlarga erishishga ko'maklashadi.¹²

